

RESPUBLIKAMIZDA JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA FUQAROLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY MEKANIZMI

*O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi 308-guruh kursanti
Mustafoqulov Shohrux Komiljon o'g'li*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif Respublikasimizda jamoat tartibini saqlash fuqorolarning xavfsizligini ta'minlash yuzasidan qabul qilingan qonunchilik hujjatlardan ko'rsatib o'tib, eng so'ngi islohotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy mexanizm, jamoat tartibi, fuqorolar xavfsizligi, «Xavfsiz poytaxt» konsepsiyasi, buzg'unchi tahdidlar, eksperiment

АННОТАЦИЯ

Посредством данной статьи автор провел научный анализ последних реформ, обратившись к принятым в нашей Республике законодательным документам, касающимся охраны общественного порядка и обеспечения безопасности граждан.

Ключевые слова: современный механизм, общественный порядок, безопасность граждан, концепция «Безопасная столица», деструктивные угрозы, эксперимент.

ANNOTATION

Through this article, the author has scientifically analyzed the latest reforms, referring to the legislative documents adopted in our Republic regarding the maintenance of public order and ensuring the safety of citizens.

Key words: modern mechanism, public order, citizen safety, "Safe capital" concept, disruptive threats, experiment

Jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini taminlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohalarida quyidagi hujjatlar:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi

«Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-sonli Farmoni ichki ishlar organlari tizimida, xususan, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida tub islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi;

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14 martdagi

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2833- sonli qarori asosida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta’sirchan tizimi yaratildi;

3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 20-apreldagi

«Ichki ishlar organlari mahalla huquq tartibot maskanining profilaktika inspektorlarini xizmat uy-joyi bilan ta’minlashga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2906-sonli qarori bilan «2017–2018 yillarda ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlarini bevosita ular xizmatni o‘taydigan hududda joylashadigan xizmat uy-joyi bilan ta’minlash dasturi» ma’qullandi;

4) 2018-yil 14-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

«Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida»gi PQ-3528-sonli qarori qabul qilinib, jamoat tartibini saqlash, avvalambor, voyaga etmagan va yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning buzg‘unchi tahdidlarni barvaqt aniqlash bo‘yicha yakdil harakatlarni, ularni hamkorlikda va sifatli bartaraf etilishini ta’minlashga xizmat qilmoqda;

5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 19- iyun kuni qabul qilingan «Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ 3786-sonli qarori bilan poytaxtda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligini oshirish, sutkaning kechki va tungi vaqtda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida ularning yaqin hamkorligini tashkil etish ta’minlanib, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda «Xavfsiz poytaxt» konsepsiyasi eksperiment tariqasida joriy etildi;

6) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-yanvardagi «Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 15-son qarori asosida fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish tartibi belgilab berildi.

7) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 16-iyundagi “Ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati saf bo‘linmalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 333-son qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil

29-noyabrdagi PF-27-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati saf bo‘linmalari faoliyatini tashkil qilishda xizmatni o‘tashning zamonaviy uslublarini joriy qilish hamda ularning yuqori harakatchanligini oshirish maqsadida 1-ilovasida 2023 — 2026-yillarda ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati saf bo‘linmalarini avto va mototransport vositalari, xizmat otlari va anjomlar bilan ta‘minlash dasturi shuningdek 2-ilovasida 2023 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan patrul-post xizmati saf bo‘linmalarining o‘tliq otryadlari uchun yangi bino va inshootlarni qurish hamda mukammal ta‘mirlash dasturi tasdiqlandi.

8) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 09-oktabrdagi “Ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati bo‘linmalari tomonidan fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash borasidagi xizmatlarni shartnomaviy-huquqiy asosda amalga oshorish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 808-son qarorining 1-ilovasi 2-bobida Fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash borasidagi xizmatlar yuzasidan shartnoma tuzish hamda 3-bobida Fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatini tashkil etilishi bilan bog‘liq qoidalar belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oilaviy ajrimlar soni nega ortmoqda maqola U.Jalilova Xalq so‘zi gazetasi elektron manbaa: <https://xs.uz/uz/post/oilavij-azhrimlar-soni-nega-ortmoqda>.
2. Ахмадов, Н. Р. (2020). Причины суицидального поведения. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов), 60-62.
3. Ахмадов, Н. Р. (2020). ПРИЧИНЫ СУИЦИДОВ В ДЕТСКОМ И ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ. Рекомендовано к печати Ученым советом Института психологии имени ГС Костюка НАПН Украины (Протокол № 14 от 28 декабря 2020), 14.
4. Ахмадов, Н. Р. (2019). Причины суицида среди подростков. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов), 60-63.